



TARIXIY TADQIQOTLAR
Ilmiy jurnali

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

TOSHKENT-2024

TARIXIY TADQIQOTLAR
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:
Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Bosh muharrir o'rinbosori:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Shakirov Ilyas Raximzyanovich
t.f.f.d., (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

TAHRIR HAY'ATI
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich
tarix fanlari doktori, professor, Akademik
O'zbekiston Milliy universiteti

Muminov Alisher Gaffarovich
Siyosiy fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Zuyev Andrey Sergeyevich
tarix fanlari doktori, professor
Novosibirsk Davlat universiteti

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Kobzeva Olga Petrovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulov Axmad Baymaxamatovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Gabrielyan Sofya Ivanovna
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ubaydullayeva Barno Mashrabjonova
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Siddikov Ravshan Berdimuratovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Narbekov Abdikamil Vafayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy Davlat pedagogika instituti

Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Bababekov Akbar Davurbayevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Zamonov Akbar Turginovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Alinazarova Dildora Valisherovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Tog'ayev Jasur Erkinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

O'sarov Umid Abdumavlyanovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Abdulayeva Nigora Sanjarovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Davlat Jaxon tillari universiteti

Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Abdullayev Utkir Ismailovich., Matnazarova Mohira O'ktamovna KO'CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN'ATNING TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR	4
2. Bababekov Akbar Davurbayevich O'ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG'LIQ EKOLOGIK TARBIYA	12
3. Bahranov Sherzod Tashtursunovich., Sirliyev Erkin Nazarovich УСТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ ЧЕРЕЗ ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	26
4. Kandaxarov Anvarjon Xasanovich KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI	44
5. Matyakubova Muborak Madrimovna., Atamuratova Dilafruz Rashidovna O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TENDENSIYALARI	60
6. Narbekov Abdikamil Vafaevich YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	70
7. Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA	83
8. Ochildiyev Fayzullo Babakulovich XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI	100
9. Smesova Katerina Aleksandrovna ИСТОРИЯ КНИГОПЕЧАТАНИЯ И КНИЖНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ	112
10. Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA	126
11. Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ - КАК МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРИСТИЧЕСКИЙ БРЕНД	143
12. Yusupov Axmedjon Shonazarovich OROLBO'YI KO'CHMANCHI SAK-MASSAGET QABILALARINING DINIY QARASHLARI VA E'TIQODLARI	155

Normurodov D. R.

t.f.n., dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

d.r.normurodov@mail.ru

TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Maqola Toshkent vohasidagi Burgulik madaniyatining o'rganilishi, bu madaniyatning o'ziga xos xususiyatlariga bo'g'ishlangan. Burgulik madaniyati majmuasi qiyosiy tahlillar qilinib, u miloddan oldingi XIII–IV asrlarda yashagan aholi vakillariga tegishliligi qayd qilingan. Bo'stonliq tumani "Sijjak" mahallasidan ilk bor aniqlangan artifaktlar Burgulik madaniyati vakillarining nafaqat tekislik va tog' oldi hududlarida yashaganliklari balki, tog'larda ham yashaganligi, asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan kun kechirganliklari qayd qilingan. Hunarmadchilikda uy sharoitida kulolchilik, to'qimachilik va metallsozlik rivojlantirilganligi ashyoviy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Toshkent vohasi, Sijjak, Andronovo madaniyati, Burgulik madaniyati, Chust madaniyati, Tuyabo'g'iz, bronza davri, ilk temir davri, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmadchilik.

Нормурадов Д. Р.

к.и.н., доцент

Национальный университет Узбекистана

d.r.normurodov@mail.ru

О КУЛЬТУРЕ БУРГУЛИК ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению культуры бургулик в Ташкентском оазисе и специфическим характеристикам этой культуры. Проведен сравнительный анализ культурного комплекса Бургулик и отмечена его принадлежность представителям населения, жившим в XIII–IV веках до нашей эры. Артефакты, обнаруженные впервые в квартале «Сижжак» района Бостонлик.

На основе материальных источников выявлено, что в домашней промышленности были развиты гончарное, текстильное и металлообработка.

Ключевые слова: Средняя Азия, Ташкентский оазис, Сижжак, эпоха бронзы, ранний железный век, скотоводство, земледелие, ремесленничество.

Normuradov D. R.

PhD., associate professor

National university of Uzbekistan

d.r.normurodov@mail.ru

ABOUT THE CULTURE OF BURGULIK OF THE TASHKENT OASIS

ABSTRACT

The article is devoted to the study of the Burgulik culture in the Tashkent oasis and the specific characteristics of this culture. A comparative analysis of the Burgulik cultural complex was carried out and its belonging to representatives of the population who lived in the 13th-4th centuries BC was noted. Artifacts discovered for the first time in the Sizzhak quarter of the Bostonlik district. Based on material sources, it was revealed that pottery, textiles and metalworking were developed in the domestic industry.

Key words: Central Asia, Tashkent oasis, Sizzhak, Bronze Age, early Iron Age, cattle breeding, agriculture, handicrafts.

KIRISH

Toshkent vohasining o'troq madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davridan boshlangan. So'nggi bronza davrining oxiri – ilk temir davrining boshi (miloddan oldingi IX–IV asrlar)da Yevroosiyo qit'asida iqlim sovib, qurg'oqchilikning kuchayishi natijasida sodir bo'lgan madaniyatlar almashishi yoki transformatsiya jarayonlari O'rta Osiyoga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan [9: 20-36]. Bu omil tufayli aholi migratsiyasi kuchaygan. O'rta Osiyoning janubida tovar xarakteridagi kulolchilik mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan protoshahar madaniyati va ular qatorida final bronza davriga tegishli Farg'ona vodiysidagi Chust madaniyati tipidagi yodgorliklar rivojlansa, uning shimoli-sharqiy qismida, ya'ni Sirdaryoning yuqori va o'rta oqimi hududlarida Andronovo madaniyatiga xos qabilalarning

o'troqlashish jarayoni yuz bergan. Undan so'ng Toshkent vohasida xo'jaligining asosini uy chorvachiligini tashkil qilsadi, sodda dehqonchilik qilish ko'nikmalariga ega bo'lgan Burgulik madaniyati vakilari yashagan. Burgulik madaniyati vakillarining kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishida Chust madaniyatining ancha yaqin bo'lsada, texnikaviy va uslubiy jihatlarida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xususan, kam hollarda sopol idishlar arxaik ko'rinishda qo'lda yasali, idishlar sirti qizil va jigarrang bo'yoqda geometrik shakllar bilan bezatilgan edi. O'rta Osiyoning janubiy qismi – Amudaryo havzasidagi Kuchuk 1, Yaz 1 davri arxeologik yodgorliklarida mintaqaning so'nggi bronza va ilk temir davri yodgorliklarida mustahkam devor bilan o'ralgan istehkom, qasr, ehrom yoki qal'a tarzidagi ko'rinishga ega bo'lgan me'morchilik rivojlangan. Bunday holat Yoztepa, Tillatepa, Kuchuktepa yodgorliklarida kuzatiladi. Biroq, ularga xos kulolchilik mahsulotlari o'zining arxaik xarakterini saqlagan.

Sirdaryo havzasida joylashgan manzilgohlarning tipologiyasi o'zgacha bo'lib, bu hududda yashagan aholi vakillarining aksariyat qismi oddiy yarim yerto'lalardan chayla-uylardan iborat qishloqlarni tashkil etgan. Bular Chust va Burgulik madaniyatlariga tegishli qishloqlar hisoblanadi. Bu madaniyatlarning (Chust, Dalvarzintepa, Burgulik) so'nggi yakuniy bosqichida ular yashagan qishloqlar asta-sekin mudofaa devorlari bilan o'rala boshlangan. Buning yorqin namunasi Farg'onadagi Dalvarzin, Chust va Ohangaron havzasidagi Tuyabo'g'iz manzillari hisoblanadi. Ushbu – Burgulik madaniyatning genezisi masalasi fanda munozarali bo'lib, ayrim mutaxassislar uning kelib chiqishini shimoldan kirib kelgan ko'chmanchi Andronovo madaniyati vakillarining o'troqlashib, dehqonchilik xo'jaligiga o'tishi jarayoni bilan bog'laydilar [26: 57]. Boshqa mutaxassislar esa bu madaniyat vakillari migratsiya natijasida Sharqiy Turkistondan Sirdaryo va Amudaryo havzalariga kelib o'rnatilganligi haqidagi ilmiy farazlarni ilgari suradilar [26: 57]. Shuni ham aytish joizki, bu madaniyatning kulolchilik buyumlariga o'xshash idishlar Ozarbayjon Respublikasidan topilgan bo'lib, ular miloddan oldingi XVIII asrlarga oidligi qayd qilingan. Bu Burgulik madaniyatining ushbu hududlardan O'rta Osiyoga migratsiya qilgan aholi

vakillarining kirib kilgan bo'lishi mumkinligiga ishora bermoqda.

Bu fikrlardan qat'iy nazar Toshkent vohasida ilk o'troq dehqonchilik madaniyati aynan shu Burgulik madaniyati davridan boshlanganligini kuzatish mumkin. Bunga Tuyabo'g'iz hududidan, Shoshtepa, Qovunchitepa kabi arxeologik yodgorliklarning pastki qatlamlaridan aniqlangan ma'lumotlar shuningdek, 2015-2019 yillardagi ilk temir davriga oid Quyun qishlog'ining qoldiqlari misol bo'la oladi [21: 97-110]. Bu yerdan topilgan sopol idishlari qoldiqlari tagi aylana, kalta jumrakli va geometrik usulda naqshlangan bo'lib, bu madaniyat Toshkent vohasida Burgulik madaniyati nomi bilan ma'lumdir. U Sharqiy Turkiston, Sug'd (Zarafshon va Qashqadaryo vohalari), Qadimgi Baqtriya va Marv hududlarigacha tarqalgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

M. I. Filanovich Shoshtepaning quyi qatlami materiallarini qayta o'rganish natijasida uni Burgulik madaniyatiga oid deb hisoblagan [36: 45-51]. U aynan Shoshtepaning eng qadimgi majmuasi bo'lgan I bosqichi (Shosh I) Burgulik II bosqichiga to'g'ri keladi degan fikrni bildirgan. Biroq u tomonidan Shosh I madaniy qatlamidan topilgan qo'lda yasalgan to'rt dona sopol buyum namunalari tuzilishiga ko'ra Burgulik madaniyatiga oid topilmalardan keskin farq qilib, bronza davri dasht madaniyati buyumlariga o'xshaydi.

Andronovo-Tozabog'yob madaniyatiga xos jihatlar Toshkent vohasidagi yodgorliklarda ham aniqlangan. Ular manzilgoh, mozar va alohida topilmalar ko'rinishida uchraydi. Ular Toshkent kanali bo'ylab [32: 10-16], Tuyabo'g'iz suv ombori hududidagi manzilgoh, Ohangaron sohillari va To'ytepa yaqinidagi qabristondan topilgan [15: 44]. M. I. Filanovich Shosh I bosqichining sanasini miloddan oldingi VI–IV asrlar bilan belgilab, bu majmuani Farg'onaning antik davr Sho'raboshat bosqichi materiallariga ancha yaqin, deb hisoblagan [34: 38-51; 35: 39-49]. So'nggi yillarda Shimoliy Baqtriya (Bandixon I) da [28: 224-234] va Sug'd (Ko'ktepa Ia va Iv) da Burgulik madaniyatiga xos moddiy ashyolar, xususan, qo'lda yasalgan naqshli sopollar, tosh qurollar va yer to'la uylar topilgan [22: 40-48]. Bu Burgulik madaniyatining Chust madaniyatiga hamda Sug'd

(Ko'ktepa) va Baqtriyaning (Bandixon I) ilk temir davri arxeologik majmualariga madaniy jihatdan yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Samarqand viloyatidagi Ko'ktepa yodgorligining pastki qatlamidan topilgan naqshli sopol buyumlar tadqiqotchilar tomonidan miloddan oldingi XII asr – IX asrlar oxiriga mansub, deb hisoblangan [22: 40-48]. Ko'ktepa va Burguluk madaniyati moddiy topilmalari (yerto'la uylar va qo'lda yasalgan naqshli sopollar)da o'xshashliklarni kuzatish mumkin.

Shimoliy Baqtriyaning Bandixon I makonida uning davrini aniqlash maqsadida S14 usulida bir qancha radiokarbon tekshirish o'tkazilgan [38: 132]. Uning tahlil natijasi Yu. A. Zadneprovskiyning Chust madaniyati uchun taklif etgan sana – miloddan oldingi XIV asrning oxiriga mos keladi [20: 74]. Shuni ham aytish kerakki, hozirgi paytda Chust madaniyatining davri radiokarbon tahlil asosida miloddan oldingi XV/XIV – IX – VIII asrlar sanalanadi [20: 77]. Tadqiqotchi F. Kolning xulosalariga ko'ra, Surxondaryo viloyatidagi Kuchuktepa yodgorligining 1-bosqichi miloddan oldingi XIV asrning oxirida boshlangan [39: Tabl. – 1, 2, 5]. Arxeolog S. R. Baratovning fikricha, ushbu sanalar Farg'ona vodiysi, Toshkent va Zarafshon vohasi, Shimoliy Baqtriyadagi naqshli sopol madaniyatlari uchun taklif etgan xronologiyaga – miloddan oldingi XIV asrning oxiri – X asrning oxiriga to'g'ri keladi [37: Tab. 2.]. Bundan tashqari, u Burgulik madaniyati metall buyumlarini sanalashda cho'l madaniyati (Sargari-Alekseev, Karasuk)ning materiallariga asoslanib, uning davrini miloddan oldingi XIV–X asrlarga to'g'ri kelishini ta'kidlagan [40: 77-82]. S. R. Baratov yuqoridagilarni hisobga olib, Burg'uluk madaniyatining ilk bosqichini miloddan oldingi XIII–IX asrlar bilan belgilashni taklif qilgan. Uning taklifiga qo'shilgan holda, Burgulik madaniyatining 1-bosqichini miloddan oldingi XIII–IX asrlar bilan, 2-bosqichini esa – miloddan oldingi VIII – IV asrlar bilan belgilagan holda, bu madaniyat so'nggi asridan so'ng, ya'ni IV asrdan keyin Toshkent vohasiga janubdan taraqqiy etgan Sug'd madaniyati, xususan shaharsozlik an'analari kirib kelgan, deb hisoblaymiz.

Burgulik topilmalari ichidagi bronza naylarga o'xshash ashyoviy dalillar Janubiy Baqtriyaning Tillatepa yodgorligida ham aniqlangan. Arxeolog V. I.

Sarianidi Tillatepa yodgorligidagi Tilla I-II majmualarining davriy sanasi miloddan oldingi 1300-1000 va 1000-600 yillar bilan belgilagan [27: 23-38]. Bu ham Burgulik madaniyati davrini belgilashda ma'lum ma'noda yordam beradi.

Toshkent vohasidagi Burgulik madaniyati aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsada, ular ilk o'troq dehqonchilikka o'tib, dastlabki qishloqlarga asos solganlar. Bu qishloqlar odatda daryo havzasi bo'ylarida, soylarning quyi oqimidagi daryoga quyilishi yaqinidagi tabiiy sug'orish uchun qulay bo'lgan yerlarda paydo qilingan. Jumladan, Burguliksoy atroflarida, Qovunchitepa, Shoshtepa, Kindiktepa, Qanqa, Qalaibolo kabi joylarda joylashgan [30: 30-33; 29: 52-53; 1: 495-496; 2: 522-523; 11: 47-49, 159-162; 12: 17-23, 39-51; 16: 19-43; 13: 118.]. Shuningdek, Burgulik madaniyatiga oid qishloq va arxeologik ashyolar 2015 yilda Ohangaron havzasi tog'oldi hududida joylashgan Quyun yodgorligidan [21: 97], 2021 yilda Pskent shahridan [18: 251-256], 2023 yilda Chorvoq suv omborining shimoliy sohilida, Sijjaq mahallasi yaqinidan aniqlandi (1 – 2-rasmlar). 2019 yilga qadar Quyunda qazish ishlari olib borildi. Bu yodgorligi o'z vaqtida katta hududni egallagan bo'lsada, keyingi paytda yerlarning o'zlashtirilishi natijasida uning soz tuproqli tepaligining bir qismigina saqlanib qolgan edi. Uning sharqiy tomonida qiya shaklidagi 3x7 m. hajmli qismi alohida ajralib turadi. Dastlabki tekshirish paytidayoq bu joydan qo'lda yasalgan sodda sopol buyumi parchalari topildi. 2017–2019 yillarda ushbu yodgorlikda arxeologik qazish ishlari olib borildi. Qazishma natijasida diametri 1-1,5 m va chuqurligi 50 sm keladigan xo'jalik o'ralari, o'ralarning ichidan va yerto'la uylarning ichidan xo'jalikda ishlatilgan turli xil tosh yorg'uchoqlar, sopol idish parchalari va hayvon suyaklari topildi [21: 1-38 rasm]. Sijjakdan topilgan sopolning tayyorlanishi va sifati Toshkent vohasi bo'ylab tarqalgan arxeologik yodgorliklarniki bilan bir xil o'xshashlikda. Shu boisdan bu topilmalarni Burgulik madaniyatiga oidligiga shubha qilishga o'rin yo'q.

Burgulik madaniyati qishloqlarini o'rganishning o'ziga xos muammolari mavjud. Bu madaniyatga oid qishloqlarning tarhini tiklash ancha murakkab bo'lib, Tuyabo'g'iz suv ombori qurilishi natijasida qishloqlarning bir qismi suv ostida

qolib ketgan. Burgulik madaniyati qishloqlari daryo bo'yidagi qayirlar (terassa)da joylashgan (1-jadval). Jumladan, Quyun yodgorligi ekin maydonining kengayishi va yo'l qurilishi oqibatida o'z ko'rinishini yo'qotgan. Shunday bo'lsada, tadqiqotlar natijasida qishloqlarning tuzilishi haqida muayyan xulosalar chiqarish imkoniyati mavjud.

Burgulik madaniyatiga xos yirik qishloq Tuyabo'g'iz suv ombori hududida (Tuyabo'g'iz 1, 1a makonlari) aniqlangan. Uning tarhi oval shaklda, meridian bo'yicha uzunligi 260 m, eni 100 m. joyda saqlanib qolgan bo'lgan. X. Dukening tadqiqotida qishloqning g'arbiy tomonida joylashgan 40-42x24x12 sm. o'lchamli xom g'ishtdan barpo qilingan mudofaa devorining (2 m) pastki 2-3 qatori va xandaq (20 m) aniqlangan [16: 19-20]. Dalvarzintepa va Ko'ktepa manzilgohlarining yerto'la uylardan iborat dastlabki bosqichga oid madaniy qatlamida mudofaa tizimi mavjud bo'lmagan [19: 327; 22: 40-48]. Shuningdek, Tuyabo'g'iz 1 qishlog'i joylashgan hududning mikrorelefi xandaq barpo etishni taqozo etmaydi. Bular X. Dukening yerto'la uylardan tashkil topgan ushbu manzilgohga nisbatan shakllanayotgan shahar sifatida qarash fikri asossizdir, deb hisoblashga imkon beradi.

Tuyabo'g'iz suv ombori hududidagi Burgulik madaniyatiga oid qishloqlarning uy-joylar guruhi bir-biridan 20-40 m, ba'zan (4 va 4a makonlar orasi kabi) 1 km.dan ortiq masofada joylashgan. Qishloqlarda odatda qishki – yarim yerto'la va yozgi chayla (kapa) turidagi yengil karkaslik uy-joylar qurilgan [16: 39]. Yarim yerto'la uylarning asosiy qismi bir xonadan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi oval, kam hollarda to'g'ri to'rtburchak va aylana shaklida bo'lgan. Ularning maydoni 4 kv.m.dan 25 kv.m.gacha bo'lib, kirish eshigi daryo o'zani tomonga qarab qurilgan. Aholining asosiy qismi o'lchamlari 2,3x1,7 m.dan 6,35x3,5 m.gacha bo'lgan turar joylarda yashagan. Ayrim yerto'la uylarning ichkarisida supa joylashgan. Xonada aylana, oval, ba'zida to'rtburchak shaklli 2 yoki 3 ta o'choq, aksariyat hollarda xonada Quyundagi kabi bir qancha aylana, oval, Tuyabo'g'izdagi kabi aylana, oval yoki to'rtburchaksimon shakldagi xo'jalik o'ralari (chuqurligi 150 sm.gacha, diametri 80-130 sm.gacha) bo'lgan. Ayrim xonalarda metall eritishga

mo'ljallangan kichik hajmli o'choqlar ham bo'lgan. Uylar sinch ustun shaklidagi yengil tom bilan yopilgan. Ko'pincha ustunlar o'choqlarning perimetri bo'yicha o'rnatilgan. Bunday konstruksiyadagi uylar qishda sovuqdan saqlanishga mo'ljallangan. Quyunda ustunlarning yerga o'rnatilgan teshiklarini topilishi yuqoridagilarni yanada tasdiqlaydi.

Uylarning o'zini maydoniga ko'ra uch tur: 1) past devorli-devoriga yog'och ustunlar o'tov shaklida o'rnatilgan, usti yopiq ko'rinishdagi chaylasifat uylar; 2) maydoni 22 kv.m. gacha keladigan yarim yerto'la ko'rnishidagi aylana va to'rtburchak shakllarda qurilgan uylar (ular guvalali sinch devorga ega bo'lib, bir qanchasidan xona tomini yopish uchun o'rnatilgan xodachalarning chuqurchalari aniqlangan) [12: 17]; 3) kamdan-kam hollarda bir-biriga tutashgan ikki xonali (makon № 1a) qilib qurilgan yirik hajmli yerto'lalar (hajmi 25 kv.m. atrofida)ga bo'lish mumkin.

Bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari va qurol yarog'lar: bolta, bel kurak, o'roq, pichoq, igna, bigiz, bargsimon paykon, nayza uchi, sovut kabilar Burgulik madaniyatiga xos hisoblanadi. Bunday namunalar ham Tuyabo'g'iz atroflaridan, ham Quyundan topilgan. Ular Farg'onaning Chust va Qayroqum madaniyatlari shuningdek, Andronovo-Tozabog'yob madaniyati topilmalari bilan o'xshash [19: 327; 24: 222].

Burgulik aholisi ho'jalining asosi xonaki chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu mashg'ulot bilan shug'ullangan va chorva o'rchitilgan. Yodgorliklarning madaniy qatlamidan topilgan kichik va yirik tuyoqli hayvon suyaklari topilgani yuqoridagi firmani tasdiqlaydi [7: 199]. Chorva mollari vohaning keng dashtlari, qiradirlari, tog' va tog' oldi hududidagi qulay yaylovlarda boqilgan. Quyundan topilgan suyaklar tahlili Burgulik madaniyati sohiblari ko'proq qo'y, echki, qoramol, ot kabi uy hayvonlarini boqqanligini ko'rsatmoqda. Shoshtepadan ham shunday hayvon suyaklari topilgan edi.

Burgulik madaniyati vakillari chorvachilik bilan birga ilk dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar. Dehqonchilikda dastlab sodda sug'orish usulidan foydalanilib, ekin dalalari daryo yoqasidagi soylarning etagidagi yomg'ir suvidan

liman usulida sug'orish uchun qulay bo'lgan yerlarda joylashgan¹. Shuningdek, mavsumiy lalmikor dehqonchilik ham qilingan. Dehqonlar asosan boshoqli don ekinlarini ekishgan. Buni Quyundan topilgan qorayib ketgan bug'doy qoldig'i va donlarni maydalashda ishlatiladigan yorg'uchoq toshlarining topilishi ham tasdiqlaydi (7-rasm).

Voha hunarmandchiligida kulolchilik, metallsozlik, to'quvchilik hamda tosh va suyakka ishlov berish muhim o'rin tutgan. Hunarmandlar tomonidan xo'jalik va mehnat qurollari yasalgan. Bu dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, ovchilik va baliq tutishda ham hunarmandlar tomonidan yasalgan qurollardan foydalanilgan. Buni vohadagi qishloq-makonlardan topilgan sopol va jez buyumlar, tosh hamda hayvon suyaklaridan yasalgan qurollar, zeb-ziynat buyumlaridan iborat topilmalar tasdiqlaydi [33: 251].

Burgulik madaniyatga xos qo'lda yasalgan sopol buyumlarining turi kam va sifati past bo'lgan. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini lentasimon va matoli qolipda yasashgan. Ayrim sopol idishlarning sirti va ichida dag'al matolarning izlari saqlanib qolgan (5.8, 6.17–6.18-rasmlar). Sopol idishlarning deyarli barchasining tagi dumaloq bo'lgan. Idishlarning sirtiga qizil rangli yupqa angob surtilib, ularning ayrimlarigina (xum, xumcha va kosalar) qizil-jigar rang bo'yoqlarda geometrik naqshlar bilan bezatilgan [11: 69]. Naqshlar shtrix, uchburchak, siniq va keng yo'l-yo'l chiziqlardan iborat bo'lgan. Shuningdek, ayrim idishlarga o'yma chiziqlar ham chizilgan. X. I. Dukening hisoblashicha, 99 % sopol idishlarga bezak berilmagan [16: 44]. Burgulik madaniyatining geometrik bezaklari (uchburchaklar) odatda umumiy bo'yalgan [17: 11-13]. Bir nechta bokalsimon idish parchalarining tashqi tomoni och rangda silliqlangan va uning ustida mayda to'r shaklida qora bo'yoq bilan naqsh chizilgan. Bunday idishlar Chust madaniyatiga xos bo'lib, ular bizning fikrimizcha olib kelingan yoki taqlid qilib yasalgan bo'lishi mumkin.

Burgulik madaniyatiga xos idishlarni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1) *Qozonlar*. Sharsimon shaklda, bo'g'zi tor, og'zi tekis, naysimon jumrakli

¹Мавсумда дарё ёқасидаги сув босадиган ерлар.

(tumshuqli) va qarama-qarshi tomonida gorizontal oʻrnatilgan yarim oy shakldagi tutqich yopishtirilgan. Bunday shakldagi idishlarning kichik (ogʻzining diametri 12-15 sm) va yirik (ogʻzining diametri 50 sm.gacha) hajmda ishlangan. 2) *Kuvachalar*. Tuzilishi tuvakka oʻxshash, lekin sharsimon koʻrinishdagi idishlar boʻlib, ularga ham qozonlardagi kabi tutqich oʻrnatilgan. Ammo ularning jumraklisi aniqlanmagan; 3) *Tovoqlar*. Yarim shar shaklidagi sayoz yoki chuqur kosalariga oʻxshab ishlangan. Ularning ogʻzi tekis va biroz tashqariga qayrilgan boʻlgan. Bu tuvaklar turlicha kattalikda yasalgan. 4) *Kosa va piyolalar*. Ular past boʻyli boʻlib, tovoqlardan kichikroq hajmda yasalgan. Bunday turdagi idishlarning ayrimlarining tagligi yassi shaklda boʻlgan (5.7-rasm).

Burgulik I bosqichining sopollari Burgulik II sopollaridan koʻp farq qilmaydi. Burgulik II tipidagi ashyolar Qovunchitepa [2: 522] va Shoshtepa [6: 50] kabi arxeologik yodgorliklarning pastki qatlamlaridan topilgan. Bu kabi sopol idishlarda shakllarning standartlashuvi, boʻyoqli idish sonining ozayishi va boʻyash usulining pasayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, keyingi bosqichda vujudga kelgan sopol idishlarda tagligining tekislashuvi, joʻmraklarning oʻzgarishi va oqma boʻyoq tarzida bezatish koʻzga tashlanadi [5: 48-49]. Shuni ham aytish kerakki Quyundan topilgan sopol idishlarni Burgulik I bosqichiga kiritish mumkin.

Burgulik madaniyatiga xos sopol idishlarga tushirilgan shakl va bezaklar hududiy jihatdan turlicha ishlangan. Xususan, Toshkent vohasidan topilgan sopol idishlar Zarafshon vodiysi va Amudaryo etaklarida topilgan bronza davri chorvador qabilalariga tegishli sopol idishlarga oʻxshash boʻlsa-da, ishlanishi va yasalishi jihatidan farqlanib, ular nisbatan qoʻpol va moʻrt boʻlgan.

Burgulik madaniyati vakillarining xoʻjalik hayotida metallurgiya muhim oʻrin egallagan. Miloddan oldingi II ming yillikning oxirida Chotqol-Qurama tizmalaridan ruda qazib olish asosida metallsozlik hunarmandchiligi rivojlangan edi [4: 98; 16: 57-73]. Miloddan oldingi I ming yillikda Toshkent vohasidagi koʻplab konlar aholini xom ashyosi bilan taʼminlab turgan [4: 100]. Qazib olingan ruda konlarning oʻzida qurilgan yarim oy shaklidagi oʻchoqlarda eritib olingan [4: 100; 16: 57-73]. Baʼzan ruda uy sharoitida ham eritilib, ularga ishlov berilgan va

tayyor mahsulotga aylantirilgan.

XULOSA

Burgulik madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklardan bronzadan yasalgan turli xil mehnat va jang qurollari, zeb-ziynat buyumlari aniqlangan [12: 45; 11: 63; 16: 51-54; 7: 199]. Jumladan, bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlaridan ikki tomoni ham tig'li bolta, asos qismi biroz egilgan, bel qismi qalinroq va dastasi teshikli o'roqlar, dastagi yumaloq to'g'ri tig'li pichoqlar, taqinchoqlar, ustalarlar, to'g'ri burchakli bigiz va ignalar, kuraksimon qoshiqchalar, ikki quloqli belkurak kabilar topilgan. Jang qurollaridan esa bargsimon hamda poyasimon kamon va nayza o'qi uchlari-paykonlar, xanjarlar topilgan [31: 164, рис. 69; 11: 63; 12: 45].

Metall tahlillari ham bu materiallar mahalliy konlardan qazib olingan rudadan uy sharoitida tayyorlanganligini ko'rsatgan [16: 57-73]. Mazkur topilmalarni Xorazmdagi Amirobod, Farg'ona vodiysidagi Chust madaniyati, Marg'iyonadagi Yoz I turidagi makonlar va Baqtriyadagi Kuchuk 1 yodgorliklari bilan bir xil davrlashtirish mumkin.

Burgulik madaniyati vakillari hunarmandchiligida to'qimachilik ham keng tarqalgan. Quyundan urchuq toshining² topilishi (8.3-rasm), idishlarda mato izlarining saqlanganligi bu hunarmandchilik turining taraqqiy eta boshlaganligini ko'rsatadi (5.8, 6.17–6.18-rasmlar). Sopollarda saqlangan mato izlarining tahliliga ko'ra, to'qimachilikda asosan chorva mollarining junidan foydalanilgan. Jun tolalari yigirgan va tola to'r shaklida to'qilib matoga aylantirilgan. Bu matolardan keyim-kechak tikilgan.

Burgulik madaniyati aholisi hunarmandchiligida toshga ishlov berish, ulardan mehnat qurollari yasash ham keng tarqalgan (7–8-rasmlar). Topilgan tosh qurollar orasida ko'plab yorg'uchoqtosh, tosh dasta, havoncha, tosh omoch, urchiqtoş kabilar mavjud [11: 69; 16: 85]. Bunday ashyolardan dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish, donlarni maydalash va to'qimachilik sohasida keng foydalanilgan.

Topilmalar orasida suyakdan yasalgan turli xil xo'jalik buyumlari va qurollar ham uchraydi [11: 69; 16: 85]. Bu Burgulik madaniyati vakillarining

²ип йигирадиган чарх тоши.

suyaktaroshlik hunaridan darak beradi.

Umuman olganda, Burgulik madaniyati vakillari doimiy yashash uchun boshpana qurib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan va ular ilk o'troq dehqonchilikka asos solgan. Hunarmandchilik turlari ishlab chiqarish sohalari bo'yicha ixtisoslashmagan bo'lsa-da, uy sharoitida kulolchilik va metallsozlik, to'qimachilik rivojlangan. Bu madaniyat egalari mayda va katta tuyoqli uy hayvonlarini parvarishlab, ularning go'shti va sutidan ozuqa, juni va terisidan kiyim-bosh sifatida foydalanishgan. Qishloq markazlari va ularning atroflarida yetishtirilgan dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini dasht ko'chmanchilarining chorva mahsulotlari (chorva mollari, ularning go'shti, juni va boshqalar) bilan ayirboshlangan. Bunday manfaatli aloqalar tomonlarning xo'jalik hayotidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Burgulik majmuasi tahlili bu yerda mehnat taqsimotining chuqur ildiz otmagan, me'morchilikda aholining turor-joylari hali arxaik xarakterda ekanligi bilan izohlansada, bu madaniyat vakillarining ilk o'troq ho'jalikka asos solganliklari bilan ahamiyat kasb etadi.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Алимов К., Буряков Ю.Ф., Дуке Х. Исследования в Ташкентского области //АО в 1975. – М., 1976. – С. 495–496.
2. Алимов К., Буряков Ю.Ф., Дуке Х. Работы по своду археологических памятников Ташкентского оазиса //АО в 1976. – М., 1977. – С. 522–523.
3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 106.
4. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака (V – начало XIII в.). – М.: Наука, 1974. – С. 100.
5. Буряков Ю.Ф., Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазиса // ИМКУ. Вып. 10. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 39–51.
6. Буряков Ю.Ф., Филанович М.И. Становление городской культуры и этапы ее развития на территории Ташкента // ОНУ. – 1979. – № 3. – С. 50.
7. Буряков Ю.Ф., Кошеленко Г.А. Ташкентский оазис. Бургуликюкская культура // Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии / Археология

СССР. – М.: Наука, 1985. – С. 199.

8. Бурякова Э.Ю., Буряков Ю.Ф., Алимов К. Работы в Ташкентской области // АО 1974. – М., 1975. – С. 453–457.

9. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. – М.: Восточная литература, 1999. – С. 20–36.

10. Григорьев Г.В. Краткий отчет о работе Янгиюльской археологической экспедиции 1937 г. – Ташкент, 1940. – С. 36–37.

11. Древности Туябугуза. – Ташкент, 1978. – С. 47–49, 159–162.

12. Древняя и средневековая культура Чача. – Ташкент, 1979. – С. 17–23, 39–51.

13. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 118–119.

14. Дуке Х.И. Бургулюкская культура // Древности Туябугуза. – Ташкент; Фан, 1978. – С. 86–87, 89.

15. Дуке Х. Новая стоянка эпохи бронзы в Ташкентской области // ИМКУ. – Ташкент, 1979. – Вып. 15. – С. 44.

16. Дуке Х. Туябугузские поселения Бургулюкской культуры. – Ташкент, 1982. – 95 с.

17. Дуке Х., Баратов С. Бургулик маданияти // Тошкент воҳаси археологияси. – Тошкент, 2010. – 11–13-бетлар.

18. Ergashev O. Toshkent vohasining paleometall davri yodgorliklarining o'rganilish tarixi // Жамият ва инновациялар. 2022. № 10. 251 – 256-бетлар.

19. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М.-Л., 1962. – № 118. – С. 327.

20. Заднепровский Ю.А. Ошское поселение к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек, 1997. – С. 74.

21. Ильясова С.Р., Максудов Ф.А., Хамидов О.А., Лингмей Лин, Вульферт Э.Ф., Нормурадов Д.Р. Раскопки на Куюне в 2018–2019 годах // Археологические исследования в Узбекистане 2018–2019 года. Вып. 12. – Самарканд, 2020. – С. 97.

-
22. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. –Тошкент: Фан, 2002. – С. 40–48.
23. Крашенинникова Н.И. Археологические наблюдения на Чаштепа // Труды ТашГУ. Вып. V. Археология Средней Азии. – Ташкент, 1960. – С. 159–162.
24. Литвинский Б.А., Окладников О.П., Ранов В.А. Древности Кайракумов. – Душанбе 1962. – С. 222.
25. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. – М–Л., 1959. – С. 62.
26. Normurodov D. Toshkent vohasining qadimgi va o'rtaasrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan avvalgi XIII asr – milodiy XIII asrning boshlari). – Toshkent, 2023. 57-bet.
27. Сарианиди В.И. Храм и некрополь Тиллятепа. – М., 1989. – С. 23–38.
28. Сверчков Л.М., Бороффка Н. Археологические работы в Бандыхане в 2006–2007 гг. // АИУз 2006–2007. – Тошкент: Фан, 2009. – Вып. 6. – С. 224–234.
29. Спришевский В.И. Археологические памятники на берегах Ташкентского моря // История и археология Средней Азии. – Ашгабад, 1978. – С. 52–53.
30. Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале // Изв. Уз ФАН СССР. – Ташкент, 1940. – № 9. – С. 30–36.
31. Тереножкин А.И. Согд и Чач // КСИИМК. – Вып. XXXIII. – М., 1950. – С. 153–155.
32. Тереножкин А.И. Древнейшие земледельцы Ташкентского оазиса// Древняя и средневековая культура Чача. – Ташкент, 1979. – С. 10–16.
33. ЎзМЭ. 2-жилд. – Тошкент, 2001. – 251-бет.
34. Филанович М.И. Ташкент: становление и развитие города и городской культуры. – Ташкент, 1983. – С. 38–51.
35. Филанович М.И., Дуке Х. О древнейшем поселении на Шаштепа в Ташкенте // ИМКУ. – Ташкент, 1990. – Вып. 24. – С. 39–49.

36. Филанович М.И. Ташкент: зарождение города и развитие городской культуры в древности и средневековье// Роль города Ташкента в развитии мировой цивилизации. – Ташкент: Фан, 2009. – С. 45–51.

37. Baratav S. Fergana und das Syr-dar'ya-Gebiet im spätem 2. und frühen 1. Jahrtausend v. Chr. // Migration und Kulturtransfer. Der Wandel vor- und zentralasiatischer Kulturen im Umbruch vom 2. zum 1. vorchristlichen Jahrtausend. Akten des Internationalen Kolloquiums. Berlin, 23. Bis 26. November 1999. – Bonn, 2001. big 177. Tab. 2.

38. Görsdor J. Information zu den 14 C – Dtirungen von Midatepa (Bandikhon I) // Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. – Ташкент, 2007. – С. 132.

39. Kohl Ph. Central Asia. Palaeolithik Beginning to the Iron Age. Edition Recherch sur Civilizations 14. – Paris, 1984. Tabl. – 1, 2, 5.


40. Parzinger H. Südsibirien in der Spätbronze – und Früheisenzeit. // Der Wandel vor- und zentralasiatischer Kulturen im Umbruch vom 2. zum 1. vorchristlichen Jahrtausend. Akten des Internationalen kolloquiums. Berlin, 23. bis 26. November 1999. – Bonn, 2001. – P. 77–82.

ILOVALAR / ПРИЛОЖЕНИЯ / APPLICATIONS

1-jadval. Toshkent vohasining Burgulik madaniyatiga oid buyumlar topilgan (qishloqlari) yodgorliklari (miloddan oldingi XIII – IV asrlar).

№	Yodgorlik nimi	O'rnashgan joyi
1	Qovunchitepa	Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri, Qurquldoq daryosi chap sohilida
2	Shoshtepa	Toshkent shahri, Sergeli tumani
3	Burguliksoy atroflari	Tuyabo'g'iz (Toshkent) suv omborining boshlanishi hududlarida
4	Kindiktepa atroflari	Tuyabo'g'iz (Toshkent) suv ombori hududida
5	Qo'loqchintepa	Toshkent viloyati, Qibray tumani, Oqqovoq qishlog'ida
6	Niyozboshtepa	Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanida
7	Changtepa	Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Aytburun qishlog'ida
8	Qanqa	Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani, Qanqa QFY hududida

9	Quyun	Toshkent viloyati, Piskent tumani, Namuna QFY hududida
10	Qal'aibolo	Toshkent viloyati, Parkent tumani
11	Kavardon	Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani
12	Sijjak	Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani



1-rasm. 2023 yilning bahorida Sijjakdan topilgan Burgulik madaniyatiga oid sopol buyum namunalari.



2-rasm. 2023 yilning bahorida Sijjakdan topilgan Burgulik madaniyatiga oid sopol buyum namunalari.